

**№ 8 (3) - 2023**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 8 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

#### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

#### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

<i>Воҳидова Комила Абдуллозизовна</i>	
“ЭЛ БАЙРОФИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА .....	11-17
<i>Сулайманов Саламат Арапбаевич</i>	
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) .....	18-24
<i>Raupov Холмамат</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ .....	25-32
<i>Мажидов Анвар Сиражович</i>	
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) .....	33-40
<i>Begamatova Nasiba Xolmurzayevna</i>	
FERMER XO'JALIKLARI VA KLASTER TIZIMI UCHUN O'RTA MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	41-48
<i>Алланазаров Мурот Мирзаевич</i>	
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА .....	49-54
<i>Ismoilova Feruza Ibragimovna</i>	
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI XIZMATLARI .....	55-59
<i>Tursunov Xurshid Nasriddinovich</i>	
O'ZBEKİSTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI .....	60-64

### **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

<i>Yuldasheva Gulnoza Abdinabiyevna</i>	
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF ENTERPRISES .....	65-70
<i>Oromidinov Muzaffar Pardabayevich</i>	
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS .....	71-75
<i>Худайназарова Дилором Хайруллаевна</i>	
ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	76-84

<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i>	
КО'ЧХМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШДА ХОРИЙИ ДАВЛАТЛАРДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОХОТЛАР .....	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i>	
МИНТАҚАДА ХИЗМАТ ТУРЛАРИДАН САМАРАЛИ РИВОЈЛАНТИРИШ ЙО'НАЛИШЛАРИ .....	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i>	
О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI .....	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i>	
МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ .....	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i>	
AGRAR SOHAGA XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI .....	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ .....	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i>	
О'ЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI .....	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i>	
МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Гаффор Аллақулович</i>	
ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ .....	138-150
<i>Мамадиёрөв Олимжон Умаровиҷ</i>	
ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ .....	151-158
<i>Раббимов Жаҳонгир Эшбоевиҷ</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ .....	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназаровиҷ</i>	
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ .....	165-174

<i>Гадоев Сўҳроб Жумакулович</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ .....	175-181
<i>Бекжанов Дилмурад Йўлдашович</i>	
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ .....	182-193
<b>09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Boydadayev Abdurroxmon Tolibjon o'g'li</i>	
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) .....	194-200
<i>Xayridinov Abbosxon Anvarovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLİSHDA MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI .....	201-205
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI .....	206-211
<i>Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich</i>	
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR MAQSADI .....	212-217
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ILMIY BAHS FENOMENINING MANTIQIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV .....	218-224
<i>Пардаева Марҳабо Давлатовна</i>	
АЛИШЕР НАВОЙЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ ФОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ .....	225-233
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
NIKOH MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI .....	234-240
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i>	
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR .....	241-246
<i>Юсупова Феруза Зойировна</i>	
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАҲНАВИЙ ЮКСАЛИШИННИГ МЕЗОНИ .....	247-251
<i>Teshaboev Muhiddin Marifovich</i>	
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI .....	252-257

## **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Soatova Nodira Isomitdinovna</i>	
LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI .....	258-265
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i>	
FRAZEOLOGIK BIRLIKLER LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA .....	266-269
<i>Yusupova Omina Muhammadzoir kizi</i>	
DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE .....	270-276
<i>Бозорова Хулкар Одинақуловна</i>	
РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ .....	277-282
<i>Matyakubov Oybek Quralbayevich</i>	
KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI .....	283-288
<i>Фатуллаева Камола Рахматуллаевна</i>	
ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ .....	289-293
<i>Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna</i>	
O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI .....	294-299
<i>Xamzayev Otaxon Erkinovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....	300-305

## **12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Абдурахманова Нодирахон</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ .....	306-310
<i>Сафоева Садокат Мусоевна</i>	
ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА .....	311-320
<i>Абдуллаева Маликабону Эркин қизи</i>	
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ .....	321-330

## **13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Zoirova Lola Xamidovna</i>	
TIBBIYOT OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA “INSON ORGANIZMINING RADIATSİYAGA SEZGİRLİĞİ” MAVZUSINI O'QTİSHDA RAQAMLI TEKNOLOGİYALARDAN	

FOYDALANISH .....	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA) .....	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i>	
YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH .....	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i>	
ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS .....	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджоновна</i>	
ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i>	
INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	362-368
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i>	
ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ .....	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i>	
KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR .....	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i>	
EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING .....	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i>	
KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHА SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQIY TAHLILI .....	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i>	
MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR .....	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i>	
XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI .....	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i>	
METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS .....	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i>	
SPORT TO'GARAKLARI ORQALI TALABALARING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI .....	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i>	
DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD .....	434-441
<i>G'ofurov Azizbek Umarjonovich</i>	
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i>	
BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i>	
INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR .....	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i>	
PROFESSIONAL TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH .....	461-469

**Atabayeva Karomat Rajabovna**  
Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi  
[atabayevak777@gmail.com](mailto:atabayevak777@gmail.com)

**Rajabova Maftuna Farhod qizi**  
Yangi O'zbekiston Universiteti talabasi  
[rajabovam524@gmail.com](mailto:rajabovam524@gmail.com)

## **O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi ahamiyati, tahlili va imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** Turizm, SWOT-tahlil, sayyoh, turistik xizmat, mehmondo'stlik.

---

**Atabayeva Karomat Rajabovna**  
Senior teacher, Urganch State University,

**Rajabova Maftuna**  
Student of New Uzbekistan University,

## **DEVELOPMENT AND ANALYSIS OF TOURISM IN UZBEKISTAN**

**Abstract.** In this article, the importance, analysis and possibilities of the development of the tourism sector in Uzbekistan are considered.

**Key words.** Tourism, SWOT analysis, tourist, tourist service, hospitality.

---

**Атабаева Каромат Раджабовна**  
Старший преподаватель,  
Ургенчский государственный университет,

**Ражабова Мафтуна Фарход кизи**  
Университета «Новый Узбекистан»

## **РАЗВИТИЕ И АНАЛИЗ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены важность, анализ и возможности развития сферы туризма в Узбекистане.

**Ключевые слова.** Туризм, SWOT-анализ, турист, туристическое обслуживание, гостеприимство.

---

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N18>

**Kirish.** Bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyot sohasi bo'lgan turizmni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Chunki, xalqaro maydonda turizm jahon iqtisodiyotining eng daromadli sohalaridan biri hisoblanadi. Turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi iqtisodiy faoliyatning transport, qurilish, qishloq xo'jaligi, mehmonxona va restoran xizmatlari, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kabi muhim yo'naliishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda turizm industriyasi fuqarolarning jismoniy, intellektual, axloqiy va psixologik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Turizmning asosiy mavjud muammosi — beqarorlik sharoitida mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimni rivojlantirishga qaratilgan tijorat faoliyatini amalga oshirishning yangi shakllari va usullarini izlashdir. Biroq, respublikamiz bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan hozirgi davrda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan tovarlar raqobatbardoshligini oshirish asosiy muammo bo'lib qaralmoqda.

Darvoqe, mavjud muammo yoki masalani ijobiy hal etish ichki va tashqi bozorda O'zbekiston tovarlarining mavqeyini oshiradi va milliy iqtisodiyotda paydo bo'lgan muammolarni ijobiy hal etishga yo'l ochadi. Bunda erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot sifatini yaxshilash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillar sifatida iqtisodiyot tarmoqlari negizi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiyoti — samarali ishlab chiqarish bilan birga xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojiga asoslangan iqtisodiyot bo'lmos'i zarur. Bu muhim vazifa turizmni rivojlantirish, O'zbekistonni jahon turizmining jozibali markaziga aylantirish, yurtimizni sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan davlatlar qatoriga kiritishni ko'zda tutadi. Shu boisdan ham, turizm xizmat ko'rsatishning yetakchi sohasi bo'lib, ulardan foydalanish mijozlar, ya'ni turistlarga xizmat ko'rsatishning zamonaviy innovatsion shakllari va texnologiyalarini talab qiladi. Mazkur xususiyatlar turizm sohasidan samarali foydalanish asosida yangi tendensiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Xususan, yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xorijiy turizm bozorlarida mamlakat turizm salohiyatini targ'ib qilish orqali respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 2026-yilgacha 9 mln. nafarga yetkazish belgilangan [1].

Darhaqiqat, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega imkoniyatlar mavjud. Respublikada faoliyat olib borayotgan xalqaro turizm yo'naliishlari asosan tarixiy-rekreatsion, tarixiy-madaniy meros obyektlari, sog'lomlashtirish turizm elementlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'naliishlardir. Turizmning boshqa yo'naliishlarini ham rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Qolaversa, turizm sohasida xizmat ko'rsatayotgan kompaniya va firmalarning ko'pchiligi O'zbekistondan turistlarni xorijiy davlatlarga yuborish, ya'ni chiqish turizmi bilan shug'ullanmoqda. Bu esa O'zbekiston turizm sohasining rivojlantirish zarurligini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil, induktiv va deduktiv xulosa, abstrakt fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunga kelib, turizm sohasini rivojlantirish ustuvor yo'naliish sifatida uning tarkibida mehmonxonalar faoliyatini keng taraqqiy qildirishga e'tibor qaratilmoqda. Chunki, sohani tarkibiy qismi — mehmonxonalar faoliyatini samarali tashkil etish turizm iqtisodiyotining kelajagini belgilovchi omil sifatida mamlakatimizda asosiy daromad keltiradigan va davlat byudjetiga barqaror tushumni ta'minlaydigan sohalardan

biriga aylanadi. Turizmning rivojlanishi bevosita mamlakat kelajagini belgilab beradi. Shu bois, ushbu soha izchil ravishda va barqaror taraqqiy etishi lozim. Bu borada iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida mehmonxonalar faoliyatida ularni turistik korxona shakli sifatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish turizm sohasining iqtisodiy barqarorligi, mustahkamligi va raqobatbardoshligini ta'minlash orqali chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi.

Ayniqsa, iqtisodiy globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi, ijtimoiy sohalardagi transformatsion o'zgarishlar va nostandard ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlarga ahamiyat qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida turizmni asosi sifatida mamlakatning tarixi, moddiy va ma'naviy merosidan turizmni jadal rivojlantirish maqsadlarida unumli foydalanish, turistik mavsum davomiyligini optimallashtirish, shuningdek turizm hajmi, oqimi va sifatiga tabiiy-iqlim tebranishlar, mavsumiylikning ta'siri va turistlarga xizmat ko'rsatishda mavsumiy notejislikni kamaytirish kabi yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqotlarga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda.

Ko'rini turibdiki, turizm sohasining rivojlanishiga turli omillar ta'sir qiladi. Bugungi kunda jahonda ko'plab turfirmalar va mehmonxonalar iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sifatini oshirishga alohida e'tibor berishmoqda [2]. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi uni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Turizm sohasini har tomonlama tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimining umumlashtirilgan ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin. Olingan natijalarning yuqori ishonchligini ta'minlash va baholar subyektivligini minimallashtirish uchun ko'p o'lchovli statistik tahlil o'tkaziladi [3].

O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi va tahlili ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ta'minot, talab va mamlakat iqtisodiyotida xalqaro turizmning ko'rsatkichlarini tadqiq qilishga asoslanadi. Turizm sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni ham tez hal etish mumkin, chunki taqdim etilayotgan turistik xizmatlar hajmining o'sish dinamikasi ish joylari sonining boshqa tarmoqlarga qaraganda ancha tez o'sishiga olib keladi [4]. Turizm sohasi uzoq muddatli keljakni o'ylab muvaffaqiyatli yashab qolish uchun uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni oldindan prognoz qilishi va imkoniyatlar eshigi ochilishini ko'ra bilishi kerak. Shu sababli, strategik rejorashtirish obyekt sifatida unda asosiy e'tibor xavf-xatarlar va imkoniyatlar yashiringanligini aniqlashga qaratiladi. Biroq, kuchli va kuchsiz tomonlar, tahdid va imkoniyatlar aniqlab olingach, keljakda korxona strategiyasini shakllantirish uchun kerak bo'ladigan ular orasidagi barcha zanjirlar o'rnatiladi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi va tahlili bugungi turizm sohasining keng taraqqiy qilib borayotganligi bilan izohlanadi. Bu borada Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston boy madaniy va tarixiy merosi, do'stona kishilari va tabiiy go'zalligi bilan sayohat va turizm sohasini kengaytirmoqdalar. Chunki, O'zbekiston hukumati o'zining turizm sohasini yuqori o'sish potensialiga ega, deb biladi. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga yordam beradigan boy madaniy va tarixiy merosga ochiq kirish uchun islohotlarni boshladi. Xususan, shular natijasida 2020-2021-yillarda turizm sohasi pandemiyaga duchor bo'ldi va mehmondo'stlik xizmati ko'rsatuvchi provayderlar va boshqa sektor ishtirokchilari turli shakllarda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. O'zbekistonning sayyohlik salohiyati yaqqol namoyish yetildi, ko'rgazmaga tashrif buyuruvchilar respublika, uning boy madaniy va tarixiy merosi, shu jumladan qadimiy shaharlar va zamонави

infratuzilma haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar. Shularni hisobga olib, turizm sohasining rivojlanishini SWOT-tahlil yordamida tahlil qilish mumkin. Bu holatni O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati turizm sohasi rivojlanishi misolida to'liq anglash mumkin (1-jadval).

### 1-jadval

#### **O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida turizm sohasining rivojlanishi SWOT-tahlili<sup>1</sup>**

<b>SWOT tahlil tarkibi</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>Xorazm viloyati</b>
Strengths (Kuchli jihatlari)	Tabiiy va madaniy turizm, qadimgi yodgorliklari mavjudligi	Tarixiy-madaniy turizmni rivojlanganligi, ichki turistga qaraganda xorijiy turistlar qiziqishini yuqoriligi
Weaknesses (Zaif jihatlari)	Infratuzilma va ijtimoiy-madaniy masalalar	Turistik hudud maydonini yirik emasligi, xizmat sifatining yuqori emasligi
Opportunities (Imkoniyatlar)	Turizmni marketing taddiqot qilish mumkinligi, qadimgi festivallarni o'tkazishni tiklash	Ziyorat klasterini tashkil etishni maqsadga muvofiqligi, boshqa turizmning yangi turlarini tashkil etish
Threats (Xavflar)	Ekologik vaziyatni murakkablashuvi, intensiv turizm sohasidagi raqobat	Turizm daromadlarining pasayishi va turizm bozorida turistlar fikrini o'zgarishi

Darhaqiqat, turizm sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biridir. O'tgan davr davomida sohada yaxshi o'zgarishlar qilindi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2019-yilda respublikaga kirib kelgan sayyoohlar soni 2016-yilga nisbatan 3,3 baravarga oshgan. Shu yilda 6,7 mln. nafar turist O'zbekistonda sayohat qilgan. Buning natijasida 1,6 mlrd. dollarlik turistik xizmatlar eksporti amalga oshirilgan. Mazkur ko'rsatkich 2016-yilda 430,7 million dollarga teng bo'lgan (2-jadval).

1-jadvaldan ko'rinish turibdiki, mamlakat kuchli va zaif jihatlaridan ancha farq qilsa ham, imkoniyat va xavflar nuqtai-nazaridan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Shunga asoslanib, SWOT metodologiyasidan o'rinali foydalanish uchun faqat tahdid va imkoniyatlarni aniqlash emas, har bir aniqlangan tahdid va imkoniyatlarning korxona faoliyati strategiyasida hisobga olinishining muhimligi nuqtai-nazaridan kelib chiqib baholashga harakat qilish kerak. Ushbu tahlilni aniqroq qilib aytganda, tahdid natijalarini baholash uchun ham shunga o'xshash matritsa tuziladi va bunda vertikal chiziq tahdidning kattaligi ko'rsatiladi. Ko'rib chiqilgan matritsalarni to'ldirish uchun uchta yo'naliш bo'yicha imkoniyat va tahidlarni aniqlash tavsiya etiladi, ya'ni, bozor, mahsulot va faoliyatdir. Maqsad qilib olingan bozorlarda turistik mahsulotni sotish imkoniyati paydo bo'ladi. Imkoniyat va tahdidning kelib chiqish manbai bo'lib iste'molchilar, raqobatchilar va tashqi omillar bo'lishi mumkin.

### 2-jadval

#### **Mamlakatimizga 2020-2022-yillarda tashrif buyurgan xorijiy sayyoohlar soni va ulushi haqida ma'lumot [5]**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2020-y.</b>	<b>2021-y.</b>	<b>2022-y.</b>
Kelgan turistlar soni	1,5 mln.	1,8 mln.	5,2 mln.

<sup>1</sup> Mualliflar ishlanmasi

o'sishi, % da	103	125	278
---------------	-----	-----	-----

Jadval tahliliga ko'ra, 2020-yilda mamlakatga 7 million nafardan ortiq xorijiy sayyoh tashrifi kutilgan edi. Biroq, og'ir pandemiya sharoitida barcha sohalar qatori turizmga salbiy omil ta'sir qildi va natijada sayyoohlarni sezilarli darajada kamaydi. Ya'ni, 2020-yilda respublikaga 1,5 mln. nafar sayyoh kelgan, 261 mln. dollarlik turizm xizmatlari eksport qilingan. 2021-yilda O'zbekistonga nisbatan ko'proq 1,9 mln. nafar xorijiy sayyoohlarni kelgan va 422,1 mln. dollarlik turizm xizmatlari eksport qilingan.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, bugungi kunda O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi quyidagi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi:

- chetga chiqish turizmining ustuvorligi turistik firmalarning turoperatorlik faoliyatini yangi xizmatlar tayyorlashga bo'lgan ishtiyoqi pastligi bilan belgilanadi Chunki, g'arb mamlakatlarida tuzilgan turpaketlar asosida ishslash oson hamda bu esa kapitalning chet elga oqib chiqishiga olib kelmoqda;

- turistik firmalarning soni turistik xizmatlarga bo'lgan talabdan yuqoriligi natijasida turizm sohasida raqobat kuchayadi;

- mavjud bo'lgan moddiy bazani investitsiya va ta'mirlash sababli uning hozirgi holatini jahon standartlariga javob berish imkoniyati;

- O'zbekiston hududlarida mehmonxona xo'jaligidagi mavsumiy ishslash an'anasi saqlanib kelishi;

- chet el mehmonxona kompaniyalari tomonidan O'zbekiston bozoriga kirib kelish jarayonining davom etishi.

**Xulosa.** Hozirgi vaqtda turizm industriyasining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi roli ortib bormoqda. Buning sababi shundaki, turizm an'anaviy ravishda iqtisodiyotning umumiy iqtisodiy vaziyatdan qat'iy nazar, o'sish bilan tavsiflanadigan tarmog'idir. Bu holat jamiyat taraqqiyoti va dam olish uchun zarur shart-sharoitlarning shakllanishi natijasida yuzaga keldi. Sayohat zamonaviy inson hayotiga mustahkam kirib, uning ajralmas qismiga aylandi. Turizm iqtisodiy va ijtimoiy hodisa bo'lganligi sababli, u shaxsiy jismoniy rivojlanish, tiklanish va ta'lim bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Avvalo, turizm bugungi kunda global tarmoq sifatida eng yaxshi rivojlanayotgan sohalardan biri sifatida xalqaro miqyosda shaxslararo, madaniy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar rivojlanishiga ijobjiy ta'sir qiladi. Shu bois, O'zbekistonda turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi iqtisodiy faoliyatning transport, qurilish, qishloq xo'jaligi, mehmonxona va restoran xizmatlari, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kabi muhim yo'nalishlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Turizm xizmat ko'rsatishning yetakchi sohasidir va mijozlarga xizmat ko'rsatishning zamonaviy innovatsion shakllari va texnologiyalarini talab qiladi. Shu bois, respublikamizning sayyoohlilik salohiyati jadal rivojlanmoqda. So'nggi yillarda mamlakat milliy iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu esa uning tez rivojlanishi, yangi ish o'rinalarini yaratish, daromadlarni ko'paytirish, aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirish, shuningdek, investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan. Bu borada mamlakatimiz hududlarida turizm sohasini yanada rivojlantirish, xorijiy va mahalliy sayyoohlarni yanada ko'proq jalb qilish, turizm sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va ko'lamenti yanada oshirish, sayyoohlarni xavfsizligini

ta'minlash maqsadida sohada marketing strategiyalarini qo'llash bo'yicha ko'plab ishlar amalgalashirildi.

Xulosalardan kelib chiqib, turizm sohasini samarali rivojlantirish va ijobiy tahlillarni olib borish uchun quyidagi takliflarni amaliyatga tatbiq qilish joiz, deb hisoblaymiz:

- turizm sohasiga oid yangi, zamonaviy va innovatsion ilmiy g'oyalarni qo'llab, mos ilmiy ishlanmalarni yaratish;

- turizmga ta'sir qiluvchi omillarni o'z vaqtida hisobga olib borib, bunda turizm sohasini samarali tashkil etish tamoyillariga asoslanib, sohani keng taraqqiy qildirish;

- turizm sohasini tashkil etish va rivojlantirishning hozirgi holatiga asoslanib, turizmnинг yangi turlari va marshrut yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda sohani boshqaruv faoliyatini yanada takomillashtirish.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. - 172 b.
2. Grönroos C. (2000). Service management and marketing: A customer relationship management approach (2nd ed.). Chichester, England: John Wiley & Sons
3. Ibadullayev E.B. Mintaqada turistik-rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. / Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Urganch: UrDU, 2022. - 41 b.
4. Xodjaniyazov E.S. Turizm sohasini transport xizmatlari bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida). / Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Urganch: UrDU, 2022. – 13 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi ma'lumoti

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 8 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).